

**KAR VA ZAIF ESHITUVCHI BOLALAR MAKTABLARINING O'QUV
MASHG'ULOTI O'QUVCHILARNING HAR TOMONLAMA
TAKOMILLAVUVIGA KO'MAKLASHISHDAN IBORAT**

*Xorazm viloyati Urganch shahar alohida ta'lim ehtiyojlari bo'lgan zaif eshituvchi
bolalar uchun ixtisoslashtirilgan 32-sonli maktab- internati musiqa fani
o'qituvchisi*

Ibragimova Laylo Ravshanbekovna

***Annotasiya:** Rivojlanishida muammolari bo'lgan yoshlar orasida eshitishida muammolari bo'lgan kar va zaif eshituvchi bolalar mavjud bo'lib, ular maxsus o'quv reja, o'quv dasturlari asosida maktab ta'limini egallaydilar. Ular uchun ta'lim maxsus korreksion yo'naltirilgan pedagogik jarayon asosida tashkil etilib, defektologik ma'lumotga ega mutaxassislar tomonidan olib boriladi.*

***Kalit so'zlar:** Kar va zaif eshituvchi, bilim, ko'nikma va malaka, sezish va idrok.*

Kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarining o'quv mashg'uloti o'quvchilarning har tomonlama takomillavuviga ko'maklashishdan iborat shu o'rinda musiqa mashg'ulotlari ham o'quv rejada ko'zda tutilgan o'quv dasturi bo'yicha bilim, ko'nikma va malakalar berish, kasbga yo'naltirish, o'quvchilarda ijtimoiy-hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishga qaratilgan. Kar va zaif eshituvchi bolalar maktablarida o'quvchilar fan asoslarini o'quv fanlari bo'yicha darslarda o'rgansalar, tarbiyaviy mashg'ulotlar jarayonida o'zlashtirgan bilim, ko'nikma va malakalarini mustahkamlaydilar. Bolalar bir-biriga o'xshamaydilar. Bir-biriga o'xshash bo'lgan bolaning o'zi mavjud emas. Bolalarning yoshlari bir xil bo'lsada, ular bir-biridan farq qiladi. Ba'zi bolalar injiq, ba'zilar esa, aksincha xushchaqchaq, ba'zilari yaxshi kuylaydi, ba'zilari esa, aksincha ashula ayta olmaydilar. Bola dunyoga kelgan kunlaridan boshlaboq ko'radi, eshitadi, biror narsa tekkanini, og'riq, issiq, hid va ta'mni xis etadi. Tevarak atrofdagi borliqni

bilish — sezish va idrok qilishdan, ya'ni voqelikdagi narsa va hodisalarning bola ongida aks etishidan boshlanadi. Bolaning idroki hayotining dastlabki-yillaridayoq ancha takomillashadi va ikki yoshida u buyumlarning rangi, shakli, kattakichikligiga qarab bir-biridan farq qila boshlaydi, tanish ohangni ajratadi va hokazo. Unda xilma-xil sensor qobiliyatlar: ko'rish va ko'zdan kechirish, tinglash va eshitish, buyumlarni tashqi belgilariga qarab ajratish, ko'zi ko'rayotgan va eshitayotgan narsaga taqlid qilish qobiliyati rivojlanib boradi. Bola turli taassurotlar olib turishi — buyumlarni ko'rishi, ushlab bilishi, kattalarning ishlarini kuzatishi, xilma-xil tovushlarni eshitishi kerak. Bu bolalarning sensor rivojlanishlari uchun zarur shartdir. Sensor qobiliyatlarning o'z vaqtida rivojlanishi esa bolalarning aqliy tarbiyasi uchun zamin yaratadi. Diqqat, xotira, intilish, qiziqish va boshqa shu singari ruhiy jarayonlar bolaning aqliy rivojlanishi uchun katta ahamiyatga ega. Bola nutqining o'z vaqtida va to'g'ri rivojlanishi aqliy rivojlanishining asosidir. Nutq ruxiy jarayon: idrok, xotira va boshqalarning rivojlanishiga, bolalarning faoliyatiga katta ta'sir ko'rsatadi. Bolalar nutqi rivojlana boshlashi bilan kattalar so'zlarining tarbiyaviy vosita sifatidagi roli ortib boradi. Bola shaxsining tarkib topishi hayotining birinchi kunlaridanoq boshlanadi. Bola har kuni ko'rgan va eshitganlari asosida borliqqa va tevarak-atrofdagi kishilarga o'z munosabatini bildiradi, kattalarning xatti-harakatlari, ishlariga, sodir bo'layotgan voqealarga bolaning beradigan bahosi, kishilarga bo'lgan munosabati — bularning hammasi bola ma'naviy qiyofasining shakllanishiga ta'sir etadi. Bolaning xoh ona qornida, xoh tug'ilganidan keyin rivojlanib borishi uchun zarur bo'lgan ma'lum shart-sharoitlarning buzilishi turli xil jismoniy yoki ruhiy rivojlanishidagi nuqsonlar, kamchiliklarga olib kelishi mumkin. Korreksion pedagogika fanida alohida yordamga muhtoj bolalarning turli xil toifalari ustida ish olib boriladi: Ular quyidagilardir:

1) eshitish kamchiliklariga ega bo'lgan bolalar (kar, zaif eshituvchi bolalar, kech kar bo'lib qolgan bolalar);

2) ko'rish qobiliyatida kamchiligiga ega bo'lgan bolalar (ko'r, zaif ko'ruvchi bolalar);

- 3) aqli zaif bolalar;
- 4) og‘ir nutqiy nuqsonlari bor bolalar;
- 5) harakat-tayanch a‘zolarida kamchiliklari bo‘lgan bolalar;
- 6) ruxiy rivojlanishi orqada qolgan bolalar.
- 7) rivojlanishida murakkab ko‘p nuqsonli bolalar;
- 8) autizm sindromli bolalar.

Alohida yordamga muhtoj bolalar me‘yorda rivojlangan tengdoshlari orasida inklyuziv ta’limda yoki ixtisoslashtirilgan ta’limtarbiya muassasalarida tarbiyalanishi va o‘qitilishi kerak. Bolaning umumiy rivojlanishiga har tomonlama kuchli ta’sir etgan nuqsonlargina uni alohida yordamga muhtoj bola deb hisoblashga asos bo‘lishi mumkin.

Adabiyotlar

1. Qodirova, F., Ibadullayeva, S. N. (2021). Ta’limda tolerantlikka erishish kelajak o‘qituvchisini inklyuziv ta’limga tayyorlashga erishish sharti sifatida. Zamonaviy maktabda va jamiyat aloqadorli, 1(1), 61-65.
2. Ibadullayeva, S. N., Jurayeva, Z. (2021). Kar va zaif eshituvchi o‘quvchilarni inklyuziv ta’limga tayyorlashda korreksion mashgulotlarning ahamiyati. Inklyuziv ta’limning dolzarb masalalari, 1(1), 35-70.
3. Ишматова, О. С. (2020). Инклюзив таълимга кохлеар имплант бўлган болаларни муваффақиятли реабилитация қилиш омиллари. Science and Education, 1(Special Issue 4), 186- 195.
4. Ишматова, О. С. (2021). РОЛЬ ФОНЕТИЧЕСКОЙ РИТМИКИ В РАЗВИТИИ УСТНОЙ РЕЧИ ДЕТЕЙ С НАРУШЕНИЯМИ СЛУХА. In СТУДЕНЧЕСКИЕ НАУЧНЫЕ ИССЛЕДОВАНИЯ (pp. 187-188).